

## VOYAGA YETMAGANLAR TO‘G‘RISIDAGI QONUNLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI

*Toshkent viloyati yuridik texnikum o‘quvchisi*  
**Abdimuminov Asadbek**

**Annotatsiya:** Maqolada voyaga yetmaganlar haqidagi qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish haqida bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Voyaga yetmagan shaxslar.

Har qanday davlatning kelajagi undagi yosh avlodning tarbiyasi, ta’lim olishi, salohiyati, sog‘lig‘i bilan bogiiqdir. Shu tufayli O‘zbekistonda ham yosh barkamol avlodni tarbiya qilishga katta e’tibor berilmoqda. Yoshlarni sog‘lom, barkamol bo‘lib tarbiya olishlari, o‘sib-ulg‘ayishlariga sharoit yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir qancha qarorlar, Oliy Majlis tomonidan qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar O‘zbekistonda yosh barkamol avlodni tarbiyalash, ularni moddiy va ma’naviy qo’llab-quwatlash, yordamga muhtoj yoshlarni davlat himoyasiga olishiga va ularni jamiyat uchun kerakli insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgan. Voyaga yetmaganlar to‘g‘risidagi qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati voyaga yetmaganlami ijtimoiy va huquqiy muhofaza qilish, ularni tarbiyalash, ta’lim berish uchun mas’ul bo‘lgan organlar tomonidan qonun talablariga riosa etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishdan iboratdir. Ushbu sohada, ya’ni voyaga yetmaganlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazoratining predmeti bo‘lib, vazirliklar, idoralar, davlat qo‘mitalari, korxona, muassasa, tashkilotlar, hokimliklar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan voyaga yetmaganlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi, voyaga yetmaganlami tarbiyasi, ularni ijtimoiy himoyasi bilan shug‘ullanuvchi davlat idoralarining, shuningdek, voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbazarliklar sodir etilishini oldini olish, profflaktika bilan shug‘ullanuvchi davlat organlari, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiruvchi organlar tomonidan voyaga yetmaganlaming huquq va manfaatlarining riosa etilishi hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar to‘g‘risidagi qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratining o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, prokuratura faoliyatining ushbu yo‘nalishi O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonuni 4-moddasida alohida yo‘nalish sifatida ko‘rsatilmagan bo‘lsa ham, amaliyotda quyidan tortib yuqorigacha, ya’ni tuman, shahar va ularga tenglashtirilgan prokuratura organlaridan tortib O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururasigacha ushbu masala yuzasidan alohida prokuratura xodimlari shug‘ullanishadi. Voyaga yetmaganlar to‘g‘risidagi qonunlar ijrosi ustidan nazorat faoliyatini qanday tarzda amalga oshirilayotgani, hududdagi maktabgacha bolalar muassasalari, maktablar, litseylar, kollejlar, o‘rta-maxsus ta’lim

o'quv yurtlarida voyaga yetmaganlaming 0 'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan huquq va erkinliklariga rioya qilinishi, bolalar shifoxonalari, sport-sog'lomlashtirish maktablari, oromgohlarida qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat, voyaga yetmaganlarga taalluqli bo'lgan jinoyat ishlari yuzasidan alohida nazorat ishlarini yuritilishi, ularning jinoyat ishlari bo'yicha qonun talablari asosida ehtiyyot chorasi qo'llash masalasi, ularni qonunlarda belgilangan huquqlari va imtiyozlariga dastlabki tergov va sud organlari tomonidan qay darajada amal qilinayotganligi, pedagog va psixologlardan foydalanilayotganligi, ularga taalluqli jinoyat ishlari bo'yicha barcha jinoyat ishlarida prokurorning ishtirokini to'liq ta'minlanishi, hokimiyatlar va tuman, shahar xalq ta'limi bo'limlari huzuridagi vasiylik va homiylik organlari tomonidan o'zlariga yuklatilgan vazifalarni aniq va bir xilda, qonunda ko'rsatilgan muddat va tartiblarda amalga oshirilayotganligi, koixona, muassasa, tashkilotlar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan voyaga yetmaganlar bilan mehnat shartnomasi tuzilib, ularning mehnatidan foydalanilayotganda, ularning mehnat va boshqa qonunchiliklarda belgilangan huquq va erkinliklari poymol etilmayotganligini ta'minlash ushbu sohadagi prokuror nazoratining vazifasi hisoblanadi. Prokuror nazoratini amalga oshirishdagi vazifalar esa 0 'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Prokuratura to'g'risida»gi, « 0 'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi Qonunlarining vazifalaridan kelib chiqadi. Bundan kelib chiqadiki, ushbu sohada prokuror nazoratining asosiy vazifasi voyaga yetmaganlami huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni ta'lim va tarbiya olishda o'z huquqlarini to'la amalga shirishlari, ularning ijtimoiy-moddiy qo'llab-quwatlashga oid qonun hujjatlariga rioya etishini ta'minlash, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurash, ularni chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan, yoshlarni qonunga hurmat ruhida tarbiya topishiga erishishdan iborat. Voyaga yetmaganlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirishning bir yo'nalishi sifatida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarga qarshi kurash va bu sohada mas'ul davlat organlarining qonunlarga rioya etishlari ustidan nazoratni amalga oshirishdir. Barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri. Shu sababU ushbu sohaga oid qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish prokuratura organlari faoliyatining muhim yo'nalishibo'lmos'i lozim. 0 'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda qonunlarida yosh avlodning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, huquqiy manfaatlarini kafolatlash uchun shart-sharoitlarni yaratish davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishi ekanligi belgilangan. Mamlakatda barcha davlat va jamoat tashkilotlarining, jumladan, voyaga yetmaganlar muammolari bilan shug'ullanuvchi idoralaming amaldagi tuzilmalari o'zgartirilib, yangidan shakllantirilmoqda. Voyaga yetmaganlar tomonidan qonun buzilish hollarini keltirib chiqarayotgan sabablarini aniqlash va o'z

vaqtida bartaraf etish, ularning manfaatlari himoyasini ta'minlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurash masalalari prokuratura idoralarining eng muhim vazifalaridan biridir. Voyaga yetmaganlar haqidagi qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun 0 'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida «Voyaga yetmaganlar haqidagi qonunlar ijrosi ustidan nazorat bo'limi» tashkil etilgan bo'lib, 0 'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 11-martdagi PF-3406-sonli Farmoniga asosan, Bosh prokuratura tuzilmasida shu bo'limda 6 xodim ishlashligi ko'rsatilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar prokuratoralarining namunaviy tuzilmasida «Prokurorning voyaga yetmaganlar haqidagi qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat bo'yicha katta yordamchisi (yordamchisi)» lavozimi belgilangan. Toshkent shahar prokuratorasining tuzilmasida esa «Voyaga yetmaganlar haqidagi qonunlar ijrosi ustidan nazorat bo'limi» mavjud bo'lib, 4 nafardan iborat shtat tuzilmasiga ko'ra, prokuratura faoliyatining ushbu yo'nalishi bilan shug'ullanishi lozimligi qayd etilgan.

Tuman, shahar prokuratoralarida esa, voyaga yetmaganlar I haqidagi qonunlar ijrosi bilan bevosita prokuorning ichki mehnat taqsimotiga ko'ra, zimmasiga yuklatilgan prokuratura xodimi (odatda, prokuror yordamchisi) shug'ullanadi. Ular tomonidan tuman, ihahardagi homilador ayollarning tug'ilajak farzandlarini qonuniy i huquqlaridan tortib, maktab yoshida bo'lgan yosh bolalar va mакtab ; yoshidagi voyaga yetmaganlar hamda 18 yoshgacha bo'lgan voyaga , yetmagan shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat amalga oshiriladi. Buning uchun tuman (shahar)dagi homilador ayollar va ular- \*,ning homilasi sog'lig'ini, sog'lom farzandning dunyoga kelishini ta'minlashga qaratilgan qonun va qonunosti hujjalarda ko'rsatilgan talablar tegishli poliklinikalar va tug'uruqxonalar, onalar va bolalar uylarida yetarli darajada bajarilyaptimi, bolalar tug'ilganidan keyin shifokorlar nazorati olib borilyaptimi, bolalar poliklinikalari va shifoxonalarida qonun talablari bajarilyaptimi, maktabgacha bo'lgan bolalar muassasalari — bolalar bog'chasi, yasli, internat, bolalar uylarida, mакtablar, litseylar, kollejlar va boshqa o'quv muassasalarida, bolalar oromgohlari va boshqa turli bolalar muassasalarida voyaga yetmaganlar haqidagi qonunlar ijrosi qanday amalga oshirilyapti doimiy nazoratda turadi. Bolalar o'tasida jinoyati chilikning oldini olish, ularning qarovsizligiga qarshi kurash ishlari prokuorning muntazam nazoratida bo'lishi kerak. Tuman (shahar) prokurori o'z vakolati doirasiga kiruvchi hududda s qancha voyaga yetmagan shaxs borligi, ularning o'qish va ish bilan ibandligi, ota-onasining qarovida yoki boshqa shaxslarning qaramog'ida qancha voyaga yetmagan shaxs borligi haqidagi ma'lumotlarni aniq bilishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. О.М. Мадалиев. Jinoyat ishlarini birinchi instansiya sudlarida ko'rilishida prokuror ishtiroki. Т., TDYI, 2005.
2. О.М. Мадалиев. Sud tergovi jarayonida prokuorning protsessual mavqeyi va ayblovni isbotlash majburiyati. 0 'quv-uslubiy qo'llanma. Т., TDYI, 2006
3. А.Д. Берензон, В.Г. Мелкумов. Работа прокурора по общему надзору. М., 1974
4. М.Х. Рустамбаев, Е.Н. Никифорова. Правоохранительные органы Республики Узбекистан. Учебник для вузов. Т., 2003.
5. Н.А. Крашенинникова. Индусское право: история и современность. М., 1982